



LINGVOKULTUROLOGIYANING RIVOJLANISH BOSQICHLARI

Gulsanam To'lanboyeva

FarDU, Chet tillari, o'qituvchi

Sabohatxon Yusupova.

FarDu, Chet tillari, Katta o'qituvchi

Annotatsiya Mazkur maqolada til va madaniyatning o'zaro bog'liqligini o'rganuvchi lingvokulturologiya sohasining rivojlanishiga oid mulohazalar aks etgan. Shu bilan birga unda xorij lingvistlarining til va madaniyat to'g'risidabildirgan qimmatli fikrlari tahlil etilgan.

Kalit so'zlar: *Lingvokulturologiya, tilshunoslik, metod, ta'lim, tajriba, tahlil.*

KIRISH

Til va madaniyat aloqadorligi xususida so'z yuritar ekanmiz, V.L.Maslovaning masalaga doir nuqtai nazarini keltirish o'rinli hisoblanadi. Lingvist mulohazasiga ko'ra, «Til madaniyatning asosi va poydevoridir, avlodlardan meros bo'lib qoluvchi madaniyatning ajralmas qismi, madaniyatni o'zlashtirishda asosiy qurol va madaniyatning eng muhim hodisasidir» [1, 62]. Ushbu fikr asosida aytish mumkinki, til va madaniyat o'zaro yaxlit holda bog'langan hodisalardir. Ularning biri ikkinchisini taqozo etadi. Shu o'rinda V.N.Teliyaning til va madaniyat to'g'risidagi e'tiborga molik munosabatini keltirish muhim: «madaniyat va til inson dunyoqarashini aks ettiruvchi ong shaklidir. Til va madaniyat o'zaro munosabatda, muloqotda bo'ladi. Til va madaniyatning sub'ekti shaxsyoki ijtimoiy guruh hisoblanadi. Me'yoriylik va tarixiylik til va madaniyat uchun umumiy xususiyatdir» [2, 225-226].

ASOSIY QISM

Hozirgi xalqaro ijtimoiy, iqtisodiy, madaniy munosabatlar mustahkam qaror topayotgan bir zamonda turli millatlar tili va madaniyatini o'rganish dolzarb vazifalardan biriga aylanib ulgurdi. «XX asr oxiri va XXI asr boshida tilshunoslikda nafaqat tilning madaniyat bilan aloqadorligi, balki uning o'zi madaniyatning bir qismi, undan o'sib chiqqan va uni ifodalaydigan vosita» ekanligi haqidagi faraz o'rtaga tashlandi. Bugungi kunda til madaniyatni yaratuvchisi, uning rivojlanishi, taraqqiy qilishi, shu bilan birga saqlanishida muhim ahamiyat kasb etishi o'z tasdig'ini topdi.

Demak, til va madaniyat munosabatlari, tilda madaniyatning aks etishi kabi masalalarni lingvokulturologiya sohasi tadqiq etadi. Lingvokulturologiya til madaniyatni yaratadi, rivojlantiradi, akkumlyativ vazifani bajarib, madaniy merosni avloddan-avlodga yetkazib beradi, g'oyasiga asoslanadi. Lingvokulturologiya antropotsentrik tilshunoslikning yetakchi yo'nalishlaridan biri (lot. lingua – til, culture – ishlov berish, yunon.logos – ta'limot) bo'lib, tilshunoslik, madaniyatshunoslik, etnografiya, psixolingvistika sohalari hamkorligida yuzaga kelgan sohadir. U tilning



madaniyat, etnos, milliy mentallik bilan o'zaro aloqasi va ta'sirini antropotsentrik paradigma tamoyillari asosida o'rganuvchi tarmoqdir.

Lingvokulturologiya sohasi bo'yicha tilshunoslar bildirgan fikrlarga e'tibor qaratilsa, keyingi yillarda uning mustahkam poydevorga ega bo'lib borayotganligi guvohi bo'lamiz: «Lingvokulturologiya tilda va diskursda o'z aksini topgan va mustahkamlangan xalq madaniyatini o'rganadi. U, birinchi navbatda, muayyan madaniyatning mif, afsona, urf- odat, an'ana, udum, tamoyil, ramz kabilarni tadqiq etadi» [3, 6]. O'zbek tilshunosligida D.Ashurova lingvokulturologiyaning vazifasi xususida fikr bildirib, shunday deydi: «Lingvokulturologiyaning vazifalaridan biri – metodologik shart-sharoitlarni aniqlashtirish, tadqiqotlarning konseptual qonun-qoidalari hamda madaniyat nuqtai nazaridan ajratib olingan til birliklarini (lingvokulturemalar) tizimga solish va tasniflash muammolarini ishlab chiqish hisoblanadi» [4, 37].

Lingvist N.D.Arutyunova qayd qilishicha, «Lingvokulturologiyaning vazifasi til birliklarining shu til bilan bog'liq madaniyat «kodlar» iga munosabati asosida tushuniladigan madaniy qiymatni ochish va talqin qilishdir [5, 341]. Tilda madaniy xususiyatga ega birlik sifatida lingvokulturologik konsept (yoki lingvokulturema) ob'ekt qilib olinadi.. V.Vorobyovaga ko'ra, «Lingvokulturema sathlararo va sohalararo majmuaviy hodisa, uning shaklini lisoniy belgi, mazmunini esa lisoniy ma'noda mujassamlashgan madaniy mazmun tashkil etadi. Lingvokulturema tahlilida tadqiqotchi madaniy xususiyatni ifoda etuvchi lisoniy vositalar mazmuniga ko'proq e'tibor qaratadi» [6, 11]. Lingvist I.G.Olshanskiy lingvokulturemani tavsiflab shunday degan edi: «Lingvokulturema sifatida madaniy mag'izni yaqqol ifodalaydigan va u bo'rtib turadigan so'zlar – jonivor, o'simlik, shaxs nomlari va, asosan, ularning metaforik ko'chma ma'nolari, maqol, matal, iboralar, faqat bir tilgagina xos bo'lgan tushunchalarni ifodalovchi leksika, tilning uslubiy, etnik, sotsial, gender xoslangan ifodalari, mifologik mazmunga ega lisoniy birliklari, urf-odat, ritual va marosim, nutqiy axloq va odob yaqqol namoyon bo'ladigan til ifodalari tekshiriladi». Umuman, V.V.Vorobyovning ko'rsatishicha, «Lingvokulturologiya – sintezlovchi toifadagi kompleks ilm sohasi bo'lib, u madaniyat va til o'rtasidagi o'zaro aloqalar va ta'sirlashuvlarni o'rganadi va bu jarayonni yagona lisoniy va nolisoniy (madaniy) mazmunga ega birliklarning yaxlit tarkibi sifatida zamonaviy nufuzli madaniy ustuvorliklarga (umuminsoniy me'yorlar va qadriyatlar) ga qaratilgan tizimli metodlar yordamida aks ettiradi» [4, 112].

Xullas, lingvokulturologiya jonli milliy tilda namoyon bo'ladigan moddiy va ma'naviy madaniyatni o'rganadigan sohadir. O'zbek va qoraqalpoq tillarida lingvokulturologik birliklar talqini orqali har ikki tilshunoslikda tillararo va madaniyatlararo xususiylik va umumiylik belgilari tadqiq sahnasiga chiqadi.



ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Маслова В.А. Лингвокультурология. –М.: «Академия», 2011.
2. Телия В.Н. Русская фразеология. Семантический, прагматический и лингвокультурологический аспекты. –М., 2016.
3. Маслова В.А. Лингвокультурология. –М.: «Академия», 2011.
4. Ашурова Д.У. Перспективы научных исследований в свете новых направлений лингвистики // Филология масалалари. –Т.: 2014. –№4.
5. Арутюнова Н.Д. Типы языковых значений. Оценка. Событие. Факт. –М.: Наука, 2018.
6. Воробьев В.В. Лингвокультурология (теория и методы): монография. – М.: Изд-во РУДН, 2016.
7. Yusupova, S. (2022). ИЖТИМОЙ ГУРУХЛАРДА ҲУРМАТ КАТЕГОРИЯСИ ИФОДАЛАШ. Science and innovation, 1(B5), 350-352.
8. A'zamjonovna, Y. S. (2022). INGLIZ TILIDA EMOTSIYALARNING GRAMMATIK IFODALANISHI. PEDAGOGS jurnali, 20(2), 65-68.
9. To'lanboyeva, G., Yusupova, S., & Mirzayeva, D. (2022, November). CULTURE AND LINGUISTICS. RELATIONSHIPS. In INTERNATIONAL CONFERENCE: PROBLEMS AND SCIENTIFIC SOLUTIONS. (Vol. 1, No. 6, pp. 82-88).
10. M. Axunova, & S. Yusupova (2022). SON KATEGORIYASINING QO'LLANILISHI VA UNING INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDA QIYOSLANISHI. Science and innovation, 1 (B7), 736-739.
11. G. Tolanboyeva, & S. Yusupova (2022). LINGVOKULTUROLOGIYA O'RGANILISH TARIXI. Science and innovation, 1 (B6), 540-543.
12. Юсупова, С. А. (2022, September). ЎЗБЕК ТИЛИ ТИПОЛОГИЯСИДА ҲУРМАТ КАТЕГОРИЯСИ. In INTERNATIONAL SCIENTIFIC AND PRACTICAL CONFERENCE" THE TIME OF SCIENTIFIC PROGRESS" (Vol. 1, No. 1, pp. 10-14).
13. Юсупова, С. А. (2022, September). ЎЗБЕК ТИЛИДА ҲУРМАТ ИФОДАЛАШНИНГ ЛИНГВОКУЛЬТУРОЛОГИК ХУСУСИЯТЛАРИ. In INTERNATIONAL SCIENTIFIC CONFERENCE" INNOVATIVE TRENDS IN SCIENCE, PRACTICE AND EDUCATION" (Vol. 1, No. 1, pp. 10-14).